



## PEDAGOG HUQUQIY MAQOMI VA IJTIMOIIY HIMOYASI - YANGI O‘ZBEKISTON TA’LIM TIZIMI ISTIQBOLI UCHUN ASOSIY YO‘LLANMA

*Omonova N.P.*

*Chirchiq Davlat Universiteti 2 kurs magistranti*

**Tayanch so‘zlar:** ta’lim, “Pedagog xodimning maqomi to‘g‘risida”gi qonun, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, Konstitutsiya, pedagog, pedagogik faoliyat, javobgarlik, tarbiya, qonunchilik, inson.

**Ключевые слова:** образование, Закон «О статусе педагогического работника», Закон «Об образовании», Конституция, педагог, педагогическая деятельность, ответственность, образование, законодательство, человек.

**Key words:** education, Law «On the Status of Pedagogical Employee», Law «On Education», Constitution, pedagogue, pedagogical activity, responsibility, education, legislation, human being.

Mamlakat taraqqiyoti haqida so‘z ketganida, avvalo, yosh avlod ta’lim-tarbiyasi masalasi muhim ahamiyatga ega. Aslida tarbiyaning asosida ta’lim yotadi, shu sabab bu so‘z hamisha “tarbiya” jumlasidan oldinda keladi. Shunday ekan, o‘qituvchi zimmasida tarbiyaga asos bo‘luvchi ta’limni bera olish mas‘uliyati birlamchi ahamiyatga ega. Davlatimiz rahbarining shaxsiy irodasi va tashabbusi bilan so‘nggi yillarda bu kabi inson huquqlarini kamsituvchi ishlarga barham berildi. O‘qituvchining maqomi va obro‘cini ko‘tarishga davlat siyosati darajasida qaralmoqda, ularning o‘z kasbiy faoliyati bilan to‘liq shug‘ullanishlari uchun zarur sharoitlar yaratib berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1 oktyabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasida ilgari surilgan o‘qituvchi va muallimlarning jamiyatdagi nufuzi va mavqecini oshirish kerakligini ta’kidlagandi. Davlat rahbarining shu tashabbusi ijrosi sifatida Adliya vazirligi tomonidan Xalq ta’limi vazirligi va Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan birgalikda “Pedagog xodimning maqomi to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqildi. Bundan tashqari yangi tahrirda qabul qilingan



mamlakatimiz Konstitutsiyasining 52-moddasida o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligini ta'minlash, kasbiy jihatdan o'sish borasida qator huquqiy asoslar keltirib o'tilgan. Bu esa o'qituvchilarning jamiyatdagi nufuzini oshirish, uning kasbiy faoliyatini davlat tomonidan himoya qilinishining huquqiy asosini yaratib berdi.

Joriy yilning 27 martida qabul qilingan, pedagog xodimlarning xizmat vazifalarini bajarishiga to'sqinlik qilganlik uchun javobgarlikni kuchaytirishni ko'zda tutuvchi O'zbekiston Respublikasining «Pedagog xodimlarning xizmat vazifalarini bajarishiga to'sqinlik qilganlik uchun javobgarlik kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga, hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish haqida»gi qonuni ham bu boradagi sa'y-harakatlarning mantiqiy davomi bo'ldi, desak. Qonunda nazarda tutilgan huquqiy normalarning hayotiyliigi shundaki, pedagog xodimlarning mehnat huquqlarini buzish bilan bog'liq jihatlar aniq va adolatli belgilangan. Umumiy holatda biror shaxsni majburiy mehnatga jalb etish bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravarigacha jarimaga sabab bo'lsa, mazkur qonun asosida pedagoglarni majburiy mehnatga jalb qilish bazaviy hisoblash miqdorining 150 baravarigacha jarima bilan jazolanishi mumkin.

Pedagog xodim deganda ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tushuniladi. Avvalo, pedagog barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini namoyon eta olishi, yetuk pedagog sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishni o'zining kasbiy burchi, deb bilishi kerak.

Mamlakatimizda 2020 yil 24 sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va unda belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlarni amaliyotda yangicha uslublar asosida qo'llash Respublika maktabgacha ta'lim, oliy va o'rta maxsus ta'lim hamda oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi, tarbiyachi, ishlab chiqarish ustalarining ma'naviy qiyofasi, hamda kasbiy mahoratlariga ham bog'liqdir. Bugungi kunda mamlakatda birgina xalq ta'limi tizimidagi muassasalarning o'zida yarim milliondan ortiq pedagog xodimlar faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, ushbu ta'lim muassasalarida 6,5 millionga yaqin o'quvchilar ta'lim olib kelmoqda. Pedagog xodimlarni ijtimoiy, huquqiy va moddiy qo'llab-quvvatlash va ularga zarur shart-sharoit yaratish ta'lim va tarbiya jarayonining sifatini oshishida alohida ahamiyatga



ega. Rivojlangan xorijiy davlatlarda ham pedagog xodimning huquqiy maqomi va ijtimoiy himoyasi qonun darajasida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 1 fevral kuni 21 moddadan iborat "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi qonunni imzoladi. Qonun bilan pedagoglarning huquqlari, majburiyatlari, faoliyatining asosiy kafolatlari, mehnatiga yarasha haq to'lash, rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish tamoyillari belgilandi. Hujjatda pedagogning huquqlari, sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'si davlat himoyasi ostida bo'lishi qat'iy belgilab qo'yildi.

Mazkur qonunga ko'ra, pedagogni kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan ishlarga, shu jumladan, hududlarni obodonlashtirishga va qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilish taqiqlanadi. Shuningdek, pedagogdan uning kasbiy majburiyatlariga taalluqli bo'lmagan hisobotlarni va boshqa ma'lumotlarni, jumladan, bitiruvchilarning bandligi ta'minlangani haqidagi hisobotlarni shakllantirishini va taqdim etishini talab qilish man etiladi.

Yangi qonunga ko'ra, quyidagi shaxslarning pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmaydi:

- qonuniy kuchga kirgan sud hukmiga muvofiq pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum etilgan shaxslar;
- qonunchilikda belgilangan tartibda sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar;
- pedagogik faoliyatni amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan kasalliklari bo'lgan shaxslar;
- psixiatriya yoki narkologiya muassasalarida hisobda turgan shaxslar.
- qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ilgari sudlangan shaxslar.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotida ilk bor kasbiy faoliyatini boshlayotgan shaxsga bir o'quv yili davriga murabbiylikni amalga oshirish uchun tajribali pedagog biriktiriladi. Shuningdek, pedagoglar sudga shikoyat qilganda davlat boji to'lamaydi. Shu tariqa, "Davlat boji to'g'risida"gi qonunga quyidagi qo'shimchalar kiritildi:

- pedagog xodimlar — kasbiy faoliyatini amalga oshirish davomida o'z sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini himoya qilish bilan bog'liq ishlar yuzasidan Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda davlat bojini to'lashdan ozod qilinadi.
- ular kasbiy faoliyatini amalga oshirish davomida pedagog xodimlarning huquqlarini buzayotgan davlat organlarining g'ayriqonuniy qarorlari, mansabdor shaxslarning harakatlari (harakatsizligi) ustidan Ma'muriy sudlarga shikoyat qilganda davlat bojini to'lashdan ozod qilinadi.



Xulosa o'rnida shuni qayd etish joizki, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi qonun ham Yangi O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmunini o'zida aks ettirgan yangi va o'z o'rnida xalqchil muhim yuridik hujjat bo'lib, mamlakatimiz ta'lim sohasining istiqboli uchun yo'llanmadir. Mazkur Qonun g'oyalari amalga oshirish jarayonida pedagog kadrlar muhim rol o'ynaydilar. Komil inson va yetuk malakali mutaxassis maxsus tashkil etilgan pedagogik faoliyat jarayonida tarbiyalanar ekan, ushbu jarayonda o'qituvchilarning o'rni beqiyosdir.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi qonuni.
4. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning O'qituvchilar va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan.
5. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
6. [www.daryo.uz](http://www.daryo.uz)
7. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

#### РЕЗИОМЕ

Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessansning poydevori bo'lgan ta'lim va o'qituvchi – pedagoglar kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etgan, ularning jamiyatdagi maqomini belgilab bergan huquqiy hujjatlar haqida ma'lumot berilgan.

#### РЕЗИОМЕ

В данной статье представлены сведения об образовании, которое явилось основой Третьего Возрождения в Новом Узбекистане, а также о правовых документах, имевших важное значение в профессиональной деятельности учителей и педагогов и определявших их статус в обществе.

#### SUMMARY

This article provides information about education, which was the foundation of the Third Renaissance in New Uzbekistan, and the legal documents that were important in the professional activity of teachers and pedagogues and determined their status in society.